



**QO‘QON ADABIYOT MUZEYINING XX ASR 60 YILLARDAGI
EKSPOZITSION FAOLIYATINING O‘RGANILISHI**

<https://doi.org/10.70728/qdpi.v08.i01.025>

*Xasanova Feruza Rahmonaliyevna,
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik
va dizayn instituti katta o‘qituvchisi,
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi
davlat muzeyi mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada ko‘hna va boy badiiy adabiyotimizning XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlaridagi Qo‘qon adabiy muhiti va shu davrda yashab ijod etgan shoiru fozillarning ilmiy-adabiy merosi, qo‘qon adabiyot muzeyining XX asr 60 yillardagi ekspozitsion faoliyati, Xamza Hakimzoda ijodiga bagishlangan bo‘limlar tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: Qўqon, adabiy muhit, Xamza Ҳакимзода, , Муқимий, Фурқат, Завқий, “Хамза – педагог” , “ Хамза – ревалюция куйчиси “, “ Хамза – оташин пропагандист “, “Хамза – биринчи совет ёзувчиси”.

Аннотация В данной статье рассматривается древняя и богатая литературная среда нашего Коканда второй половины XIX – начала XX века, научное и литературное наследие поэтов и виртуозов, живших и творивших в этот период, выставочная деятельность Кокандского литературного музея в 1960-е годы, а также разделы, посвященные творчеству Хамзы Хакимзода.

Ключевые слова: Коканд, литературная среда, Хамза Хакимзаде, Муқими, Фурқат, Завки, «Хамза – педагог», «Хамза – певец революции», «Хамза – пламенный пропагандист», «Хамза – первый советский писатель».

KIRISH. XX asrning 60-yillari Qo‘qon adabiyot muzeyi tarixida alohida bosqich sifatida e‘tirof etiladi. Bu davrda muzeyning ekspozitsion faoliyatini takomillashtirish, ilmiy-amaliy ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish, milliy adabiy merosni xalqqa yetkazishda zamonaviy usullarni joriy etish dastlabki muhim vazifalardan biri bo‘lib qoldi. Respublikamizning ko‘hna madaniy markazlaridan biri Quqonda 1961 yil fevral oyida Hamza Hakimzoda tug‘ilgan kunning 70 yilligi munosabati bilan bo‘lgan tantanali kunlarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining adabiyot muzeyi ochildi. 1966 yilda muzeyga Fafur

G‘ulom nomi berildi. Muzey ekspozitsiyasi 7 bo‘limdan iborat edi. Ko‘rgazmalarida Qo‘qon xonligining XVIII-XIX asrdagi tarixiy, ijtimoiy madaniy hayotiga, G‘oziy, Maxmur, Hoziq, Uvaysiy, Nodira, Mahzuna, Ma‘dan, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Hamza va b. hayoti, ijodiga oid materiallar (shaxsiy buyumlar, asarlarning qo‘lyozmalari, toshbosma nusxalari, hoz. nashrlari, suratlar, arxiv hujjatlari kiritilgan edi [7].

ASOSIY QISM

Muzeylar — xalqning tarixiy xotirasi, ma‘naviy merosi va madaniy taraqqiyot bosqichlarini o‘zida mujassam etuvchi noyob maskanlardir. Xususan, o‘zbek adabiyoti tarixini chuqur o‘rganish, buyuk adiblarimiz hayoti va ijodini keng jamoatchilikka tanishtirishda adabiyot muzeylarining o‘rni beqiyosdir. Ana shunday muhim madaniy-ma‘rifiy dargohlardan biri — Qo‘qon adabiyot muzeyi XX asrning 60-yillarida shakllangan dastlabki ekspozitsiyasi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur ekspozitsiya nafaqat muzey faoliyatining boshlang‘ich bosqichi, balki o‘zbek adabiy merosini ilmiy asosda tadqiq etish va targ‘ib qilish jarayonida muhim qadam bo‘lgan. Muzeyning dastlabki ekspozitsiyasi quyidagi yechimga ega edi: muzeyga kirish bilan katta zal frizining butun aylanasi bo‘ylab o‘rnatilgan “O‘tmish haqida o‘ylar” siklidagi rasmlar joylashtirilgan. Bularda halqimizning ming yillik tarixi o‘z ifodasini topgan. Quldorlik tuzimidan boshlab to hozirgi davrgacha bo‘lgan xalqimizning hayoti ko‘z o‘ngimizdan o‘tadi. Muzey ekspozitsiyasi xozirgi zamon talabi darajasida tuzilgan. Unda kadimgi davr madaniyati O‘rta asr madaniyati XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmi Kukon adabiy muhiti O‘rta Osiyoning Rossiya imperiyasiga qo‘shib olinish davri kabi bo‘limlari bor. Shuningdek, Navoiy, Bobur, o‘zbek demokratik adabiyoti namoyondalari hamda o‘zbek Sovet adabiyotining asoschisi Hamza Hakimzoda hayoti va ijodiga alohida bo‘limlar ajratilgan edi.

Birinchi zalda xalqimizning eng qadimgi madaniyatidan dalolat beruvchi eramizning I-II asrlariga oid Ayritom, Zarutsoy yodgorliklari III- asrga oid Tuproqqal’a yodgorligi V-VI- asrlarga oid Bolaliktepa , Varaxsha yodgorliklari nusxalaridan namunalar qo‘yilgan edi[3]¹. Yuksak talant bilan ishlangan bu qadimgi madaniyat lavhalari halqimizning bundan bir yarim ming yil avval ilgani oldingi san’ati bilan tanishish imkonini berar edi.

O‘zbek halqinin buyuk mutaffakir shoiri Navoiyga bag‘ishlangan bo‘lim ham tomoshabinlar diqqatini o‘ziga jalb qiladi. Bu bo‘limda shoirning hayoti va ijodi haqida mukammal ma’lmo olish mumkun edi. Vitrinalarda shoirning xar-xil davrlarda yozilgan qo‘lyozma devorlari va litografik usulda yozilgan Sovet davrida nashr etilgan asarlaridan namunalar qo‘yilgan edi. Stendlarda Navoiy asarlariga ishlangan juda ko‘p bezaklar namoyish qilingan. Ayniqsa, Navoiy lirikasi va Hamsasiga Kamoliddin Behzod ishlagan minatyuralar o‘rta asr tasviriy san’atining qimmatbaho durdonasidan sanalar edi. Bu asarlar o‘zining realistik syujetlar ko‘zni qamashtiruvchi bo‘yog‘i va nafisligi bilan kishini xayratga soladi. Muzeyning katta zali Qo‘qonda yetishib chiqqan demokrat shoirlar Muqumiy, Furqat, Zavqiy, Xamzaning xayoti va ijodiga bag‘ishlangan. Qator stendlarda mazkur shoirlarning xayotiga oid biografik malumotlar berilib, asarlariga ishlangan tasvirlar namoyish etilgan[5].

O‘zbek adabiyotining yetakchi shoiri bo‘lgan Muqimiyga bag‘ishlangan bo‘lim ham muhim bo‘limlardan sanalar edi. Zal devoriga shoirning rassom L. Abdullayev tomonidan ishlangan katta portreti osib qo‘yilgan edi. Stendlarda shoirning qisqacha biografiyasi, ijodiga oid ma’lumotlar yozilgan. Vitrinlarda esa Muqimiyning Moskvada o‘qigan jiyani Ro‘zimuxammadga yozgan maktublarining nusxalari ekspozitsiyaga qo‘yilgan edi. Bu xatlar orqali shoirning shu yillardagi xayotini bilib olish mumkin. Bir necha stendlarda shoirning mashhur asarlariga ishlangan naqshinkor bezakl muqovalari qo‘yilgan edi[4]. Ayniqsa, uning “Tanobchilar” asariga ishlangan bezak kishining diqqatini o‘ziga tortadi. Bunda asarning chuqur g‘oyaviy mazmuni to‘la ifodasini topgan. Muqimiy ijodini o‘rganishga doir asarlar bilan tanishtiriladi. Furqat, Zavqiy bo‘limlari xam xuddi shunday tuzilgan edi.

Xamza Hakimzoda ijodiga bag‘ishlangan bo‘lim boy mazmuni bilan ko‘zga alohida tashlanar edi. Bo‘limda Xamzaning ko‘p qirrali faoliyati to‘la aks ettirilgan edi. “Xamza – pedagog”, “Xamza – revalyutsiya kuychisi”, “Xamza – otashin propagandist”, “Xamza – birinchi sovet yozuvchisi” mavzulardagi qator stendlarda shoirning hayoti va ijodi tanishtirilardi. Ayniqsa, Hamzaning adabiyot sohasidagi xizmatlari yaxshigina ochib berilgan bo‘lib, stendlarda fuqorolar urushi yillarida shoirning tashkil etgan “Sayyor truppa” a’zolarining rasmi, pe’salari, afishalari, rasmlari qo‘yilgandi. Shuningdek, stenddan shoirning hujjatlari nusxasi Turkiston harbiy shtati tomonidan unga berilgan xujjatlarining sur’atlari o‘rin olgan edi. Stendlar oldiga qo‘yilgan vitrinlarda Hamzaning qo‘lyozma va nashr etilgan asarlari shoir ijodi haqida yozilgan ilmiy asarlar namoyish etilgan edi. Xona o‘rtasida shoirning byusti qo‘yilgan bo‘lib, jiddiy ko‘zlari olislarga tikilgan kshrinishda aks ettirilgan edi [5].

Keyingi ikki xona o‘zbek san’at adabiyotining atoqli namoyondolari S.Ayniy, A.Qodiriy, X.Olimjon, G‘.G‘ulom. Oybek, Sh.Rashidov, Zulfiya, A.Qaxxor, Yashin, Oydin, S.Abdulla, Uyg‘un va boshqa adiblar ijodi bilan tanishtiradi. Xona frizlarida yozuvchilarimizning ilhom manbai bo‘lgan sotsialistik hayotimizning turli sohalariga oid lavhalar berilgan edi. Stend va vitrinalar orqadi o‘zbek sovet adabiyoti vakillarining hayoti va ijodi bilan to‘liq tanishish mumkin edi.

Muzey xotira daftarlarida Qo‘qonda adabiyot muzeyning ochilganligidan kishilarning ayniqsa, yoshlarning mamnun bo‘layotganligiga oid faktlar qayd etilgan edi. Jumladan, Qo‘qon shahridagi 12-maktab o‘quvchilari shunday yozadi: “Biz muzeyga kelib uning mazmuni bilan tanishish orqasidan maktabimizda adabiyotdan olgan bilimlarimizni boyitdik va mustahkamladik”. Adabiyotga bo‘lgan havasmandlar ortdi. Shahrimizda shunchalik boy adabiy yodgorliklarni bizga tanishtirishda tashabbuskor bo‘lgan Fanlar Akademiyasiga minnatdorchilik bildiramiz.

Faqat o‘quvchilargina emas, ittifoqimizning boshqa shahar va qishloqlaridan kelgan do‘stlarimiz va muzey, umuman o‘zbek madaniyati sha’niga iliq so‘zlar yozganlar. Ufalik ishchi shunday so‘zlarni yozib qoldiribdi; “Muzey men va do‘stlarimga katta ta’ssurat qoldirdi. Biz o‘lmas madaniyat yaratuvchilar oldida boshimizni egamiz. Shuningdek, hozirgi o‘zbek yozuvchilariga hurmat va umid bilan qaraymiz” [5].

Chet ellik mehmonlarimiz ham muzeyga tashrifi 1965 yildan ko‘lami oshdi. Progressiv Xind adabiyotining yirik vakili Singh o‘g‘li bilan Chexoslovakiyaning yirik jamoat arbobi Gusto Fuchikova va Kuba vakillari kelib muzey bilan tanishadilar. G.Fuchikova muzey xotira daftariga quyidagilarni yozib qoldirgan: “ Sizlarning muzeylaringiz hali juda yosh. Shunga qaramay o‘zbek shoirlar va yozuvchilarning xalq bilan juda yaqinligi va xalqining eksplutatorlariga qarshi kurashida aktiv qatnashganini ko‘rgazmali qilib ko‘rsatib bera olgan. Mening fikrimcha bu yerda Qo‘qonga keluvchilarning hammasi ayniqsa, Chet eldan keluvchilarni olib kelish kerak. Muzey xodimlariga muzeyni to‘ldirish va boyitishiga muvoffaqiyatlar tilayman”[5].

O‘zbek adabiyoti tarixini muzey vositalari orqali targ‘ib qilishda Qo‘qon adabiyot muzeyi fond ishlariga katta ahamiyat berib kelmoqda. Arxiv materillarini ilmiy jihatdan qayta ishlash, tizimlashtirish, ekspozitsiya va tadqiqot ishlarida shoir va yozuvchilar arxiv materiallaridan istefoda etgan holda foydalanishda katta imkoniyatlarga sabab bo‘ladi. Hozirgi kunda o‘nlab arxiv fondlarining ilmiy tavsiflari nashr uchun tayyorlangan, fondlarning aksariyati nashr etilgan va ilmiy muomalaga kiritilgan. Qo‘qon adabiyot muzeyi fond ishlariga katta ahamiyat berib kelmoqda. Arxiv materillarini ilmiy jihatdan qayta ishlash, tizimlashtirish, ekspozitsiya va tadqiqot ishlarida shoir va yozuvchilar arxiv materiallaridan istefoda etgan holda foydalanishda katta imkoniyatlarga sabab bo‘ladi. Hozirgi kunda o‘nlab arxiv fondlarining ilmiy tavsiflari nashr uchun tayyorlangan, fondlarning aksariyati nashr etilgan va ilmiy muomalaga kiritilgan. Adabiyot muzeyi o‘zining qo‘lyozma va toshbosmalar fondiga ega. Ularning soni bugungi kunda 2200 dan ortiq. Bu qo‘lyozmalar ichida o‘zining noyoblighi jihatidan dunyoda yagonaligi bilan alohida ahamiyat kasb etuvchi manbalar ham o‘rin olgan.

Muzeyning mazkur davrdagi faoliyatini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, 60-yillarda ekspozitsiyalarda asosiy e’tibor klassik va ma’rifatparvar shoirlar merosini namoyish etishga qaratilgan. Alisher Navoiy, Zokirjon Xolmirzayev, Muhammadsharif So‘fizoda, Nodira, Furqat, Mukimiy kabi adabiy namoyandalar hayoti va ijodiga oid hujjatlar va an’anaviy qo‘lyozmalar ekspozitsiya markazini tashkil etgan. Ushbu materiallar nafaqat ko‘rgazma uchun, balki ilmiy tadqiqotlar uchun ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

60-yillarda muzeyning ilmiy-ekspozitsion faoliyatini o‘rgangan tadqiqotchilar ta’kidlashicha, ushbu davrda arxiv materiallarini to‘plash, tasniflash, qo‘lyozmalarni saqlash sharoitlarini yaxshilash, shu bilan birga, ularni ilmiy muomalaga kiritish ishlari faol amalga oshirilgan. Muzey xodimlari tomonidan tashkil etilgan ekspeditsiyalar orqali ko‘plab qimmatli qo‘lyozmalar, toshbosmalar, shoir va yozuvchilarning shaxsiy arxiv hujjatlari muzey fondiga kiritilgan.

Muzey ekspozitsiyasida o‘sha yillarda milliy liboslar, maishiy buyumlar, tarixi va adabiy muhitga doir ashyolardan foydalanish orqali adabiy muhitni har tomonlama yoritishga intilgani kuzatiladi. Bu esa ekspozitsiyalarning targ‘ibot va ta’limiy ahamiyatini oshirgan.

Xulosa

Qo‘qon adabiyot muzeyining XX asr 60-yillarida yo‘lga qo‘yilgan ekspozitsion faoliyati milliy adabiy merosni saqlash, targ‘ib qilish va ilmiy muomalaga kiritish jarayonida muhim ilmiy-amaliy poydevor yaratdi. Ushbu davrda Muzey fondlarining tizimli ravishda boyitilishi va qo‘lyozmalarning ilmiy tavsiflanishi, shuningdek ularni ekspozitsiya va ilmiy ishlarda qo‘llash imkoniyatlari muzeyshunoslik, adabiyotshunoslik hamda manbashunoslik sohalarida yangi tadqiqotlar olib borish uchun samarali zamin yaratdi. Ekspozitsiyon echimlarning puxta ishlab chiqilishi, tarixiy davrlar bo‘yicha adabiy-merosni mavzuli bo‘limlarga ajratish, shuningdek, ulug‘ adiblar hayoti va ijodini keng qamrovda yoritish muzeyning madaniy-ma‘rifiy ahamiyatini yanada oshirgan. Muzeyda yaratilgan ilmiy metodika va ekspozitsiyon prinsiplar zamonaviy muzeyshunoslik amaliyotida ham o‘z aksini topib, milliy adabiy merosni targ‘ib qilishning samarali shakllarini ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmar qilmoqda. Qo‘qon adabiyot muzeyining mazkur davridagi faoliyati nafaqat tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, balki bugungi kunda ham o‘zbek muzeyshunosligida ilmiy manba sifatida keng qo‘llanilmoqda. Ushbu tajriba badiiy adabiy merosni ilmiy asosda tadqiq etish, ekspozitsiyalarni modernizatsiya qilish hamda xalqaro standartlarga muvofiq taqdim etish borasida kelgusidagi ilmiy va amaliy izlanishlar uchun poydevor vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ahmedov S. Rajabov Q. Jadidchilik. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – B.278-279.
2. "O‘zbek sovet ensiklopediyasi" 12-tom. – T.1979.
3. O‘zbekiston milliy arxivi, R 2487-fond,1-ro‘yxat, 853-ish,8-varaq.
4. O‘zbekiston milliy arxivi, P2487-fond,1-ro‘yxat, 1101-ish,3-varaq
5. Qo‘qon adabiyot muzeyi. O‘zbekiston madaniyati. 58 (674) 1962 yil 21 iyul.
6. "Halq so‘z" Turkiston viloyatining gazetasi. 1908-yil, 56-son
7. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-a/adabiyot-muzeyi-uz-2>